



---

## PLASTIK CHIQINDILARNING INSONIYAT UCHUN ZARARLARI

**Po'latova Sarvinoz**

**Hamzayeva Ruxshona**

*Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti*

*Tabiiy Fanlar fakulteti Kimyo yo'nalishi talabasi*

**Kalit so'zlar:** *Ekologiya, plastik chiqindilar, mikroplastik, atrof-muhit muhofazasi, ekologik inqiroz.*

**Annotatsiya:** *Plastik chiqindilarning inson salomatligi, ekologik muvozanat va global ijtimoiy-iqtisodiy tizimga ko'rsatadigan salbiy ta'sirlari tahlil qilinadi. Unda plastiklarning tarkibidagi kimyoviy moddalarning oziq-ovqat zanjiri orqali inson organizmiga kirishi, mikroplastiklarning havoda, suvda va tuproqda to'planib borishi natijasida yuzaga keladigan sog'liq uchun xavflar yoritilgan. Shuningdek, plastik chiqindilarni qayta ishlashdagi muammolar, atrof-muhitning ifloslanishi va iqlim o'zgarishiga qo'shayotgan hissasi ilmiy dalillar asosida bayon etiladi. Maqola yakunida plastik iste'molini kamaytirish, muqobil ekologik materiallarni joriy etish va chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar beriladi.*

**Keywords:** *Ecology, plastic waste, microplastics, environmental protection, ecological crisis.*

**Abstract:** *This article analyzes the negative impacts of plastic waste on human health, ecological balance, and the global socio-economic system. It highlights the risks posed by chemical substances contained in plastics that enter the human body through the food chain, as well as the accumulation of microplastics in the air, water, and soil. The study also discusses the challenges of plastic recycling, environmental pollution, and the contribution of plastic waste to climate change, all supported by scientific evidence. In conclusion, the article provides recommendations for reducing plastic consumption, introducing environmentally friendly alternative materials, and improving waste management systems.*

**Ключевые слова:** *Экология, пластиковые отходы, микропластик, охрана окружающей среды, экологический кризис.*

**Аннотация:** *В статье анализируются негативные последствия пластиковых отходов для здоровья человека, экологического равновесия и глобальной социально-экономической системы. Рассматриваются риски, связанные с химическими веществами, содержащимися в пластике и попадающими в организм человека через пищевую цепь, а также накопление микропластика в воздухе, воде и почве. Кроме того, обсуждаются проблемы переработки пластиковых отходов, загрязнение окружающей среды и вклад пластика в изменение климата, подтверждённые*

научными данными. В заключение приводятся рекомендации по снижению потребления пластика, внедрению экологически безопасных альтернативных материалов и совершенствованию систем управления отходами.

Bugungi kunda plastik mahsulotlar inson hayotining deyarli barcha sohalariga chuqur kirib borgan. Arzonligi, qulayligi va mustahkamligi sababli plastikka bo'lgan talab har yili ortib bormoqda. Ammo ushbu qulayliklar ortida jiddiy ekologik va sog'liq uchun xavfli muammolar yashiringan. Yer yuzida har yili millionlab tonna plastik chiqindi hosil bo'lib, ularning katta qismi qayta ishlanmaydi va tabiatda yuzlab yillar davomida parchalanmay saqlanib qoladi. Natijada okeanlar, daryolar, tuproq va hatto havo ham plastik zarralari bilan ifloslanmoqda. Mikroplastiklarning oziq-ovqat orqali inson organizmiga kirib borayotgani, plastik tarkibidagi kimyoviy moddalarning sog'liq uchun tahdidi ortib borayotgani jahon hamjamiyatini jiddiy tashvishga solmoqda. Ushbu maqolada plastik chiqindilar muammosining insoniyatga ko'rsatadigan zararli ta'siri, ekologik oqibatlar va ularni kamaytirish bo'yicha yechimlar tahlil qilinadi.

Shaxsan men plastik chiqindilar muammosini nafaqat ekologik, balki ma'naviy mas'uliyat sifatida ham ko'raman. Chunki tabiatni asrash — bu biz yashayotgan muhitga, kelajak avlodlarga bo'lgan hurmatimizdir. Ko'chalar, daryolar yoki hatto yashash hududlarimizda plastik to'planib borayotganini ko'rganimda, odamlar bu muammoni jiddiy qabul qilmayotgandek tuyuladi. Vaholanki, har bir tashlab yuborilgan plastik paket yoki idish yillar davomida tabiatga zarar yetkazadi. Menimcha, muammoning ildizida odamlarning plastikning haqiqiy oqibatlar haqida yetarli tasavvurga ega emasligi yotadi.

Shu bois men plastikdan foydalanishni kamaytirish borasida har bir kishi kichik qadamlar bilan bo'lsa ham hissa qo'sha oladi, deb o'ylayman. Masalan, qayta ishlatiladigan sumkalardan foydalanish, bir martalik idishlar o'rniga uzoq muddatli buyumlarni tanlash yoki chiqindilarni saralab tashlash oddiydek tuyuladi, ammo umumiy natijaga katta ta'sir ko'rsatadi.

XVIII asrdagi sanoat inqilobigacha yer yuzidagi 90% aholi qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanib kun ko'rgan, keyinchalik ro'y bergan industrial bomb zavod va fabrikalarni ketmaket ochilishi, ulardagi jarayonlarning borgan sari avtomatlashib borishi albatta judayam katta iqtisodiy o'sishga sabab bo'lgan. Lekin aynan shu o'zgarishlar ekologiyaga tiklab bo'lmas zarar yetkazadigan jarayonlarga start bergan. Sanoat revolutsiyasi boshlangandan beri yer yuzida chiqindi turlari kundan kunga ortib bormoqda. Quyida ba'zi chiqindi turlarini chirish muddatini keltirib o'taman:

- oziq ovqat chiqindisi 4-6 haftagacha
- karton va turli xildagi qog'oz 1 oydan 2 yilgacha
- segaret qoldig'i 10 yildan 20 yilgacha
- plastik paket 10 yildan 20 yilgacha
- plastik stakan 50 yil

- batareya 100 yil
- alyumin banka 80-200 yil
- plastik baklashka 450 yil
- bir martalik taglik 550 yil
- shisha 1000000 yil yoki umuman chirimaydi.

Bunga javoban mamlakatimizda uch yil avval “Yashil makon” umummilliy loyihasi boshlandi. Qo‘shni mamlakatlar bilan birgalikda Mintaqaviy iqlim strategiyasini amalga oshirishga kirishildi. Poytaxtimizda Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o‘zgarishlarini o‘rganish universiteti tashkil etildi.

Shuningdek, O‘zbekiston BMT tomonidan bu borada qabul qilingan ikkita muhim rezolyutsiyaning tashabbuskori bo‘ldi. Ayni vaqtda “yashil” energetika iqtisodiyotimiz drayverlaridan biriga aylanmoqda.

Bu dasturda “yashil” texnologiyalarni joriy etish, suvni tejash, ko‘kalamzor hududlarni keskin ko‘paytirish, Orol fojiasining oqibatlarini yumshatish, chiqindilar muammosini hal qilish, eng muhimi, aholi salomatligini mustahkamlash kabi masalalar ustuvor ahamiyat kasb etishi zarurligi ta’kidlandi.

nan tlog'i	<b>Olma po'chog'i</b>	<b>Plastik idishlar</b>	<b>Sigaret qoldiqlari</b>	Gazet va k
hafta	<b>2 oy</b>	<b>200 yil</b>	<b>5 yil</b>	1 o 3 o
				

Bu yilda atrof-muhit tozaligi va chiqindilarga alohida etibor qaratildi.

Xulosa qilib aytganda chiqindilarning ko‘payishi va qayta ishlanmasligi havoni buzilishi va suvning ifloslanishiga olib kelmoqda. Bu inson hayoti uchun havf tug‘dirmasdan qo‘ymaydi. Plastiklarning qayta ishlanmasligi chirish muddati uzoqligi va chirish jarayonida o‘zidan har xil hid chiqariishi zarar keltirmoqda. Bunga javoban plastik o‘rnini bosuvchi boshqa narsalardan foydalanishni yo‘lga qo‘yish kerak.



---

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alijonova, M. (2023). Plastik chiqindilar va mikroplastikning iqlim o'zgarishiga ta'siri. Ekologiya va barqaror rivojlanish jurnali, 2(1), 45-53.
- 2.
3. Karimov, M. (2022). Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi. Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi nashriyoti
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-dekabrda PF-245-sonli "2025-yil —
5. Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili" deb e'lon qilinishi to'g'risidagi farmoni.